



UDK:811.11

Baxora ERGASHOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti dekani, f.f.d., dotsent U.Yo'ldoshev taqrizi asosida

O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING TARIXI VA TARAQQIYOTI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbek folklorshunosligining shakllanish tarixi, ilmiy yo'nalishlari va zamonaviy yutuqlari tahlil qilinadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish orqali folklorshunoslikning o'tgan davrlardagi ilmiy asoslari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ham ushbu maqolada aks etiriladi. Shuningdek, bugungi kunda texnologik imkoniyatlar va ilmiy metodologiyalarning rivojlanishi xalq og'zaki ijodini tahlil qilishda qanday rol o'ynayotgani ko'rsatib berayotgani, o'tgan davr folklorshunoslari va ularning mehnati natijalari zamonaviy folklorshunoslik tadqiqotlarida qanday aks etgani hamda bugungi kun talablariga mos yangi yondashuvlar imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqola O'zbek folklorining o'ziga xosligini saqlab qolish va uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish yo'lida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: folklorshunoslik, o'zbek xalq og'zaki ijodi, zamonaviy folklorshunoslik, an'analar va zamonaviylik, madaniy meros.

HARMONY OF THE PAST AND PRESENT IN UZBEK FOLKLORE STUDIES

Annotation

This article analyses the history of the development of Uzbek folkloristics, its scientific directions, and modern achievements. By studying examples of Uzbek oral folk art, the article highlights the intrinsic connection between the scientific foundations of past folkloristics and contemporary research. Additionally, the role of technological advancements and the evolution of scientific methodologies in analysing oral folk creativity today is examined. The work also discusses how the contributions of past folklorists are reflected in modern studies and explores the possibilities of new approaches that meet contemporary demands. This article aims to provide a significant theoretical foundation for preserving the uniqueness of Uzbek folklore and promoting it on an international scale.

Key words: folkloristics, Uzbek oral folk art, modern folkloristics, traditions and modernity, cultural heritage.

ГАРМОНИЯ ПРОШЛОГО И НАСТОЯЩЕГО В УЗБЕКСКОМ ФОЛКЛОРОВЕДИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются история становления узбекской фольклористики, её научные направления и современные достижения. Через изучение примеров узбекского устного народного творчества освещается неразрывная связь между научными основами прошлой фольклористики и современными исследованиями. Также в статье показана роль технологических достижений и развития научной методологии в анализе устного народного творчества в наши дни. Обсуждаются вклад фольклористов прошлых лет, их влияние на современные исследования, а также возможности новых подходов, соответствующих требованиям современности. Цель статьи - предоставить значимую теоретическую основу для сохранения уникальности узбекского фольклора и его продвижения на международной арене.

Ключевые слова: фольклористика, узбекское устное народное творчество, современная фольклористика, традиции и современность, культурное наследие.

Kirish. O'zbek folklorshunosligi – bu o'zbek xalqining og'zaki ijodiy merosini, ya'ni ertaklar, dostonlar, maqollar, qo'shiqlar, latifalar va boshqa xalq ijodi turlarini ilmiy o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan sohasi hisoblanadi. Ushbu soha xalqning tarixi, madaniyati, ma'naviyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi asarlarni tahlil qilish, ularni to'plash, tizimlashtirish va ilmiy asosda tadqiq qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu san'at turi ma'lum bir qonun-qoidalarga asoslanmagan bo'lib, u og'izdan-og'izga o'tib borgan sayin o'zining asl haqiqatidan biroz yiroqlashadi, ya'ni kimdir unga yangi qismlarni qo'shib, mazmunni yanada kengaytirib ko'rsatsa, qaysidir zamonning shaxslari uning hajmini ham, ma'nosini ham tor holatda keltirib o'tadilar. Og'zaki nutqning bir bo'laki hisoblangani uchun ham beqaror va o'zgaruvchidir. Ilg'or g'oyaviylik folklor xalqchilligining negizi sanaladi. "Bir mintaq, mamlakat yoki etnik guruhning xalq an'analari majmuasi bo'lib, bu majmua ularning madaniy ifodasi bo'lgan turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, ya'ni urf-

odatlar, afsonalar, e'tiqodlar va diniy yoki sehrli amaliyotlar, hikoyalar, maqollar va og'zaki an'analar orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi: xalq tomoshalari, xalq bayramlari; keng ma'noda, bir vaziyatning, joyning yoki muhitning o'ziga xos, rang-barang ko'rinishi (shuningdek, salbiy ma'noda, ortiqcha rang-baranglik va xos xarakterlarga nisbatan). XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti uchun "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "xalq og'zaki ijodi" kabi atamalar ishlatilgan. Bu atamalar xalqning og'zaki ijod namunalarini ifodalash uchun foydalanilgan bo'lsa-da, ular ilmiy jihatdan tizimli va rasmiy xarakterga ega emas edi. 1930-yillarda o'zbek folklorini ilmiy asosda o'rganish ehtiyoji kuchaygani sababli, ushbu soha uchun yagona atama zarurati paydo bo'ldi. Hodi Zarif (1905–1938) O'zbekistonning mashhur folklorshunoslaridan biri bo'lib, o'z faoliyati davomida xalq og'zaki ijodini tizimli ravishda o'rganishga katta e'tibor qaratdi. U xalq og'zaki ijodini to'plash va ilmiy

tahlil qilishda birinchilardan bo'lib xalqaro ilmiy tamoyillarga tayanib ish olib bordi. Aynan uning ijodi va ilmiy ishlari tufayli "O'zbek folklori" atamasi shakllandi va ilmiy terminologiyada mustahkam o'rin egalladi [1]. O'zbek folklori namunalari orasida dostonlar o'zining qahramonlik ruhi va ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi eng muhim janrlardan biridir. Ushbu maqola yillar davomida o'zbek xalqi orasida shakllangan o'zbek folklorshunosligining yorqin tarixi, shu bilan birgalikda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar tahlilini o'zida yoritib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek folklorshunosligini 1930-yillarda folklorshunoslar tomonidan yozib olinib, ilmiy jihatdan tahlil qilingan "Alpomish", "Kuntug'mish" va "Go'ro'g'li" kabi mashhur dostonlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Misol uchun, "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining jasorat va sadoqat kabi qadriyatlari, "Kuntug'mish"da sevgi va oilaviy qadriyatlar tasvirlangan bo'lsa "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida qahramonlik va milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Qo'shimcha ma'lumot sifatida "Go'ro'g'li" dostonlarining bu xil turkumlikdan iborat ekanligi dunyo epik merosida noyob hodisa sifatida baholanadi va o'zbek xalqining poetik iqtidori, yaratuvchanlik quvvatining naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.[2]. Folklorshunoslikning etaklar qismi esa xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Bu janr orqali xalqning orzu-umidlari va axloqiy qarashlari tasvirlangan. "Tilla bola", "Zumrad va Qimmat", "Boy va kambag'al" kabi mashhur etaklar xalqning donoligini va ma'naviyatini yoritib berishda bugungi kunda ham ahamiyatli. O'zbek folkloridan mustahkam o'rin egallagan qo'shiq va laparlar xalqning turmushi va marosimlari bilan uzviy bog'liqdir. Yigit-qizlarning sevgi qo'shiqlari, mehnat jarayonida aytiladigan qo'shiqlar va to'y lapar-yallalari o'zbek xalq hayotining muhim qismini tashkil etadi. Bularga yorqin misollar sifatida "Ona allasi", "Oyijon", "Oftob chiqdi olamga" kabi o'zbek milliy folklor qo'shiqlarini keltirsak bo'ladi [3].

Tahlil va natijalar. Folklor asarlari so'z san'ati sifatida yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Folklorshunoslikka turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqa shunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlari, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Ular asosan xalq orasida og'zaki tarzda tarqalgan, lekin vaqt o'tishi bilan yozma shaklga keltirilgan. Bu asarlarning anonimligi ularga o'ziga xos bir xususiyat bag'ishlaydi. Yozma adabiyotda asarlar aniq mualliflar tomonidan yoziladi, ammo folklor asarlari ko'pincha an'anaviy ravishda xalq orasida yaratilgan va avloddan-avlodga o'tgan. Misol uchun, "Alpomish" eposi xalq orasida bir nechta variantlarda mavjud bo'lib, uning muallifi noma'lum. Bunday asarlar o'zgaruvchan, doimo yangi talqinlarga ochiq bo'lib, har bir mintaqa yoki davrda turli shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Folklorshunos Omonilla Madayev ta'kidlaganidek: "Anonimlik xalq og'zaki ijodida xalq vakillarining o'z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilish namunasi sifatida qadrlanadi"[4]. Folklor asarlari xalqning umumiy bilimni, tajribasini va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Bu asarlar oddiy va tushunarli tilda bo'lib, ular xalq orasida keng tarqalgan va yodlanishi oson. Masalan, "Maqol

va matallar" xalq donoligini ifodalaydi, ularda ma'naviy qadriyatlar, axloqiy meyorlar yoritiladi. Misol uchun "Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar" maqolida vaqtni bekor o'tkazmaslik, aql bilan ish ko'rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etilgan bo'lib, bu jihat folklor asarlarini xalqning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'laydi, ular nafaqat o'rgatadi, balki axloqiy va ma'naviy saboqlarni berishda muhim rol o'ynaydi [5]. Shuningdek, folklor asarlari o'z strukturasi "ochiq" bo'lishi mumkin, ya'ni ular yakunlanmasdan qolishi yoki turli talqinlarga ega bo'lishi mumkin. Yozma adabiyotda esa asar odatda aniq yakunlanadi. Bu ochiq struktura folklor asarlariga o'zgaruvchanlik va moslashuvchanlik beradi, ularning turli zamon va joylarga moslashishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, folklor asarlarida ko'pincha stereotiplar, tipik obrazlar va arxetiplardan foydalaniladi. Qahramonlar, yovuz kuchlar, yaxshilar va yomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar aniq va oddiy tarzda ko'rsatiladi, bu esa asarlarning xalq uchun tushunarli va esda qoladigan bo'lishini ta'minlaydi. O'zbek xalq folklorshunosligida o'zgacha o'rin egallagan mashhur "Alpomish" dostonidagi epik uslubi va qahramonlik tematikasi o'zbek adabiyotining qimmatli merosi sifatida tarixda o'z o'rnini topgan. Quyidagi misra esa, ayniqsa, qahramonning shijoati, ichki g'ayrati va sevgisi bilan bog'liq ko'plab chuqur ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi:

"Tog'u toshlardan oshib,
Polvonning g'ayrati toshib,
Sevikli yor esga tushib,
Boychiborning chiqqan changi,
Borayotir ulashib.
Ketayotir Boychibor,
Chopishga chopish qo'shib,
Selkin daryoday toshib." [6]

"Alpomish" dostonining badiiy asar sifatidagi kuchi asosan uning o'ziga xos tasviri vositalari va xilma-xil uslublaridan kelib chiqadi. Masalan, "Selkin daryoday toshib" iborasi Boychibor otining chopish shiddatini juda jonli tarzda tasvirlaydi. Bu yerda daryo va toshish so'zlari qahramonning harakatining kuchi va tezligini ta'kidlaydi. Daryoning seli tasviri jihatdan tezlik va kuchni ifodalaydi, bu esa Boychiborning harakatini ulug'vor qiladi. Apomish obrazidagi qahramonlik va sevgining ulug'lanishi ushbu dostonning asar sifatidagi eng muhim jihatlaridan biridir. Sevikli yor haqida so'z yuritilishi, Apomishning maqsadlari va kurashining motivi sifatida yoritilishi, xalq qadriyatlarining zamonaviy hayot bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, 1925-1928-yillarda G'oz Olim Yunusov, Hodi Zarifov, Abdulla Alaviy kabi milliy qadriyatlarimiz fidoyilari xalq baxshilarini, etakchi va qo'shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etilishi bilan boshlangan folklorshunoslikning o'rganilishi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir va boshqa ko'plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishlari bilan davom etgan. Shu bilan birgalikda bu sharaflar ishgah Mahmud Zarifiy, Iso Ernazar o'g'li, Fotima (hozirgacha to'la ismi-sharifi aniqlanmagan), Tovfiq Mustafbev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzayev, Husayn Karimiy kabi havaskor folklor to'plovchilar ham jalb qilingan [7]. O'zbek folklorshunosligini bugungi kunda o'rganish dolzarbli, birinchi navbatda, uning milliy madaniyatimizdagi muhim o'rnini anglashdan kelib chiqadi. Folklor – xalqning tarixiy, ma'naviy va estetik xotirasini saqlovchi eng qadimiy va chuqur ildizlarga ega san'at turi bo'lib, u milliy ong va kimlikni shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar u bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib

turuvchi san'at turidir - deb ta'kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov [8]. Folklorning san'at sifatidagi o'ziga xosligi shundaki, u xalqning kollektiv ijodi sifatida yuzaga keladi. Har bir xalqning o'z folklori mavjud bo'lib, u o'ziga xos estetik va didaktik xususiyatlarga ega. Folklor unsurlari qatorida, badiiy va estetik talablarga mos ravishda xalqning o'ziga xos uslubi, til va obrazlar tizimi o'rin tutadi. Misol uchun "Boychechak" nomli o'zbek folklor qo'shiqlaridan birida:

"Boychechakni tutdilar,
Sim yoog'ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar
Baxmal bilan yopdilar." [9]

Turkiy xalqlarda qadim zamonlardan kattalar, keyinchalik bolalar tomonidan kuylab kelingan. Bolalar erta bahorda dala va bog'lardan boychechaklar terib, undan guldastalar yasaganlar, tol navdalaridan chambarlar qilib, boshlariga kiyganlar hamda guldastalar ko'targan holda uymay yurib, "B." qo'shig'ini aytganlar, uy egalariga gullar ulashganlar[10]. Shu bilan birga, folklor zamonaviy san'atdan farq qiladi, chunki u an'anaviy va avtonom bo'lib, ayrim yirik madaniy jarayonlar va musiqiy, badiiy ifodalar orqali o'ziga xos o'zgarishlarni boshdan kechirmaydi. Folklor o'zining ifodali shakllari orqali xalqni birlashtiradi, uni bir-biriga yaqinlashtiradi va jamiyatning ruhini aks ettiradi. U o'zining sarlavhalari, dostonlari, qadriyatlar bilan vaqt o'tgan sari zamon va makonni tasvirlab beradi. Shu bilan birga, folklor o'ziga xos tarzda evolyutsiya qilishi mumkin, ammo u o'zining asosiy estetik va madaniy strukturasi saqlab qoladi. Misol tariqasida to'ylarda aytiladigan "kelin salom" ni keltirib o'taylik. Biz kelin salomni hech qaysi manbada o'qimagandirmiz, ammo undagi so'zlar bizga yod bo'lib

qolgan, ya'ni momolarning shirali, jo'shqin ovozlari orqali quloqlarimizdan qalbimizgacha kirib borgan.

Ul ko'rdim deb kerilgan, to'y berib xo'p sevingan

Salom, salom yor-yor, kelin salom yor-yor,

Qabul aylang qaynotasi sizga salom yor-yor!

She'riy parchadagi "ul" so'zi "o'g'il" so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib, Samarqand viloyatining Toyloq tumani va Urgut tumanlarining Tojikiston Respublikasi bilan chegara hududlarida ko'proq foydalaniladi. Guvohi bo'lganimizdek, bu janrning lug'at boyligi juda sodda hamda tushunarlidir. Taklif o'rnida esa shunday deyishimiz mumkin, zamonaviy texnologiyalar davrida milliy madaniyatimizni saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish uchun o'zbek folklorini raqamlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini raqamli formatga o'tkazish, ularni onlayn platformalar orqali keng ommaga taqdim etish, madaniy merosni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, raqamlashtirilgan folklor arxivlari tadqiqotchilar, ijodkorlar va san'at ixlosmandlari uchun qulay ma'lumot manbaiga aylanishi mumkin. Folklorshunoslik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi ilmiy hamkorlikni talab qiladi. Turli xalqlar og'zaki ijodi o'rtasida mavjud umumiylik va farqliliklarni o'rganish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirganligi sababli xalqaro ilmiy konferensiyalar, qo'shma tadqiqot loyihalari va almashuv dasturlari orqali o'zbek folklorining o'ziga xosligi va universaligini dunyoga namoyish qilish imkoniyatlari yaratilishi zarur. Bu nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodining yangi qirralarini ochishga, balki jahon folklorshunosligi rivojiga ham munosib hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Shamsiyev.Sh.I, Ahrorov.A.A. 2023. O'zbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotda tutgan o'rni. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali
2. Qambarov.Sh. 2024. O'zbek xalq dostonlarining tasnifi. "Новости образования: исследование в XXI веке"
3. <https://ertak.uz/songs>
4. Madayev. O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: "Mumtoz so'z", 2011. -B.15.
5. Suvonqulova H. O'zbek xalq maqollari.Toshkent: "Adabiyot uchqunlari",2014.
6. "Alpomish" o'zbek xalq dostoni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,o'zbek tili,adabiyoti va folklori instituti. Toshkent, 2018.
7. Isroilova.X. O'zbek folklorshunosligining rivojlanishida folklorshunos olimlarning qo'shgan hissalar. Oriental art and culture, scientific methodological journal, 2023.
8. Mirzayev.T, Turdimov.Sh, Jo'rayev.M, Eshonqulov.J, Tilavov.A. O'zbek folklori. Toshkent: "Malik print Co", 2021.
9. <https://uz.lyricsus.com/yalla-guruhi/boychechak/>
10. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Boychechak_\(qo%CA%BBshiq\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Boychechak_(qo%CA%BBshiq))